



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ SIYOSATI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

MURATOV AMIRXAN TEMURXAN O'G'LI

Bank moliya akademiyasi tингlovchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasining davlat shakli, huquqiy tizimi, Konstitutsiyadagi soliq tizimining asoslari, soliqlarning byudjetdagi ulushi, soliq organlari tizimi, soliq huquqi bo'yicha olimlar, soliq qonunchiligining rivojlanish bosqichlari, soliq stavkalari, soliq nazorati tushunchasi va turlari, soliq tekshiruvi tushunchasi va turlari, soliq yuki, soliq siyosati bo'yicha xalqaro indekslar va soliq tekshiruvi bo'yicha xorijiy davlatlarning tajribasi o'rGANildi.

Kalit so'zlar: Soliqlar, soliq siyosati, soliq tizimi, soliqlar va yig'imalar, soliq organlari, soliq stavkasi, soliq yuki, soliq nazorati, soliq inspeksiysi, soliq qonunchiligi.

TAX POLICY AND MAIN DIRECTIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: The state form of the Republic of Uzbekistan, the legal system, the basics of the tax system in the Constitution, the shares of taxes in the budget, the system of tax authorities, the scientists on tax law, the stages of development of tax legislation, tax rates, the concept and types of tax control, the concept and types of tax inspection, the tax burden, international indices on tax policy and experience of foreign countries in tax audit have been investigated.

Keywords: taxes, tax policy, tax system, taxes and levies, tax authorities, tax rate, tax burden, tax control, tax inspection, tax legislation.



Soliqlar har qanday davlat shakllanishining asosiy manbasi hisoblanadi. Soliqlar, bu – davlat va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga soluvchi muhim vositasi hisoblanadi. Soliq mexanizmi soliq huquqi va soliqqa tortishni boshqarish asoslariga tayangan holda soliq munosabatlarini tartibga soladi. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi soliq tizimi davlatning samarali soliq siyosatini yuritilishida asosiy mezoni hisoblanadi.

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiylik, aniqlik va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi, adolatlilik, soliq tizimining yagonaligi, oshkorlik va soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanadi.

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari Soliq kodeksida belgilangan prinsiplarga zid bo‘lishi mumkin emas hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib soliq siyosatining shakli va yo‘nalishlarining asosi bo‘lib, davlatning siyosiy boshqaruvi, milliy xususiyat va maqsadlar, ma’muriy-hududiy tuzilish, turli mulk shakllari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar kabi qator omillar hisoblanadi. Soliq siyosati iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy munosabatlarni o‘zida mujassam etgan holda soliq tizimi orqali davlat va alohida ijtimoiy guruhlarning ehtiyojlarini ta’minlash uchun moliyaviy resurslarni qayta taqsimlaydi.

Soliq siyosatining shakllaridan biri yuqori soliqlar bo‘lib, ushbu shaklda davlat ko’plab soliq turlarini va yuqori soliq stavkalarini joriy etadi, soliq imtiyozlarini esa imkon darajasida qisqartiradi. Bunday soliq siyosati natijasida soliq to‘lovchilarda amalda jamiyat iqtisodiy rivolanishiga hech qanday ishonch qoldirmaydi. Shuning uchun soliq siyosatining ushbu shakli ham ko‘pincha davlatning rivojlanishi shuni taqozo etgan paytlarda, ya’ni urush, iqtisodiy tanglik sharoitlarida qo’llaniladi.

Davlat soliq siyosatini tayyorlovchi uni to’liq hayotga tatbiq qilishning tashkilotchisi va boshqaruvchilik rolini bajaradi. Davlatning soliq siyosatini faol yuritish – bozor iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli o’tishning va uning munosabatlarini har tomonlama rivojlantirishning muhim omilidir. Hozirgi davrning soliq siyosati



asosi – yurtboshimiz belgilab bergen respublika iqtisodiy rivojlanishning besh tamoyili, ustuvor yo'nalishlaridir. Respublika soliq siyosati ana shu tamoyillardan kelib chiqib, soliq sohasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Soliq siyosatining ikki yo'nalishi mavjud:

1. Korxona va tashkilotlarga nisbatan soliq siyosati. Eng avvalo, korxona va tashkilotlarni bozor iqtisodiyoti sharoitidagi erkinligini hisobga olish. Ularning moliyaviy mustaqilligiga, erkin baxo belgilashlariga to'sqinlik qilmaslik va byudjetga soliq to'lovlari belgilanayotganda faqat demokratik asosda, ya'ni Oliy Majlis tasdiqlab berigan soliqlarni undirishni tashkil etish zarurdir. Xozirgi vaqtda soliqlar bir tomonidan korxonalarda taqchil, raqobatga bardosh bera oladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarishni ko'paytirishga, ikkinchi tomondan tovar bahosini oshirib sotgan holda mehnatsiz yoki kam mehnat bilan topilgan daromadlarni cheklashga qaratilmog'i zarur.

2. Soliq siyosatida aholining turli xil guruhlariga nisbatan xilma-xil yondoshishdir. Nochor, kam ta'minlanganlarga iloji boricha soliqdan ko'proq imtiyozlar berish va kam kuch ishlatib daromad oluvchi yoki boshqa yengil doromad topuvchilarga nisbatan yuqori progressiyali soliq stavkalarini qo'llashdan iboratdir.

Mustaqillik davrida soliq siyosatiga e'tibor bersak, davlat, birinchidan, soliq tushumlarining umumiyligi summasida egri soliqlar salmog'ini oshirib bormoqda. Ikkinchidan, butun respublika soliq idoralarini yuqori darajali texnologiya, kompyuter jihozlari bilan ta'minladi. Soliq siyosatini faollashtirish maqsadida quyidagilarga e'tiborini ko'proq qaratish lozim:

Soliq sohasida turli davlatlarda yo'l qo'yilgan ba'zi xatolarning takrorlanmasligi uchun soliq tarixini puxta o'rghanish;

Soliqqa tortish va uni undirish ishlarining arzonga tushishiga erishish;

Soliq ob'ekti aniq, ixcham, to'lovchilarga va soliq idoralari xodimlariga soliqni hisoblash uchun oson va qulay bo'lishi zarur.



Soliqlarning byudjetga to'liq va o'z vaqtida tushishiga qiziqtirish maqsadida byudjetga ko'p, salmoqli soliq to'lovchilarga soliqdan ma'lum qismini qoldirish ham maqsadga muvofiqdir.

Soliq siyosatining zamonaviy dolzarb muammolari, ularga nisbatan bildirilayotgan e'tirozlar, muammolarni hal etish va e'tirozlarni yumshatish yo'llari ham hozirgi sharoitda soliq siyosatinig dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi global sharoitda zamonaviy soliq siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tadbiq etishni uning fundamental asoslarini aniqlab olishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Soliqlar muammosi bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar amaliyotidagi eng murakkab muammolardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda juda keskin tanqidga uchrayotgan, juda qaynoq munozaralarga sabab bo'layotgan, isloh qilish bo'yicha tahlil ob'ekti va qarama-qarshi g'oyalarga ega bo'layotgan soliqlardan bo'lak islohotlarning boshqa bir yo'nalishi yo'q. Tabiiyki, ideal (benuqson) soliq tizimini jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari, undagi yaratilgan ilmiy va ishlab chiqarish salohiyatini hisobga oluvchi muhim nazariy asos yordamidagina yaratish mumkin.

Soliq tizimi tadbirkorlikning taraqqiy etishiga yordam berishi va bir vaqtning o'zida aholining kam ta'minlangan qatlami turmush tarzining pasayib ketishiga to'sqinlik qilishi kerak.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki:

iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan soliq to'lovchilar o'rtaсидаги soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta'minlash;



soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabr "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-742-sonli Qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/5801127>
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2020 yil, 01 yanvar. <https://lex.uz/docs/-4674902>
3. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. 2014 yil, 01 yanvar. <https://lex.uz/docs/-2304138>
4. Маликов Т.С. Бюджет-солик сиёсати. Дарслик. – Т.: “IQTISOD- MOLIYA”, 2019. – 404 бет
5. Tilabov N.T. Солик сиёсатини такомиллаштириш - иқтисодиётни тартибга солиш инструменти сифатида. "Science and Education" Scientific Journal. 2022/5/ 1743-1757. www.openscience.uz
6. Tilabov N.T. Liberalization of tax policy - guarantee of ekonomic stability. "Science and Education" Scientific Journal. MAY 2021/VOLUME 2 ISSUE 5. 1097-1112. www.openscience.uz
7. Тилабов Н.Т. Ўзбекистон шароитида бюджет-солик сиёсатининг ўзига хос хусусиятлари. “Инновацион иқтисодиёт шароитида молия тизимини ривожлантиришнинг замонавий тенденциялари ва истиқболлари” мавзусидаги республика онлайн илмий-амалий конференция материаллари тўплами. –Т.: ТМИ., 2020. - 356 б. 89-90 бетлар.
8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021 yil 30 dekabr "2022 yilda yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solish tartibiga kiritilgan asosiy o'zgarishlar to'g'rsida"gi 06/04-01-01-32/2987-sonli axborot xati.



9. www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali
10. www.senat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Senati sayti
11. www.parliament.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi
12. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi